

№ 07-5/35
2026 y. "4" iyun

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ

Kuzatuv kengashining

2026-yil "26" may dagi

25 sonli yig'ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi


Sh. Nosirov



**“ANOR BANK” AJning
hayriya va tijorat homiyligi yordamini amalga
oshirish va qabul qilishni tartibga solish
to‘g‘risidagi
NIZOMI**

I. Nizomning maqsadi

1. Mazkur Nizom "ANOR BANK" AJ (bundan buyon "Bank" deb yuritiladi) hayriya va tijorat homiyligi yordamini amalga oshirish va qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu tartibning maqsadi – Bankda hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish hamda qabul qilishda shaffoflik, adolat va belgilangan me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash hamda korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va noqonuniy harakatlarni oldini olishdan iborat.

3. Ushbu tartib hayriya va tijorat homiyligini faoliyatini xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, ichki qoidalar talablariga muvofiqlashtiradi. Ushbu qoidalar Bankning ishonchli va mas'uliyatli biznes jarayonlarini rivojlantirish, uning obro'-e'tiborini saqlash va himoya qilishga xizmat qiladi.

4. Nizom rioya qilinishi kerak bo'lgan minimal talablarni belgilaydi. Agar qonun hujjatlarida yuqoriroq talablar belgilangan bo'lsa, Bank ushbu talablarga rioya qiladi.

5. Ushbu Nizom talablari hayriya va tijoriy homiylik jarayonlarida ishtirok etuvchi Bankning barcha xodimlariga taa'luqlidir.

6. Ushbu Nizomda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:

Qo'llaniladigan qonunchilik – amal qilinishi shart bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, agar qo'llanilsa, ular bilan cheklanmagan holda: O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Homiylar – homiylikni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Oluvchilar – Hayriya yoki tijorat homiyligini oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Davlat organi – davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi – davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozim.

Davlat fuqarolik xizmatchisi – davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot.

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

Xalqaro tashkilot – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalaridagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasi.

Siyosiy ta'sirga ega shaxs – amaldagi yoki sobiq yuqori lavozimli amaldor, shu jumladan:

- mahalliy davlat hokimiyati yoki o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbari;
- hukumat rahbari, vazir (vazir o'rinbosari);
- parlament deputati yoki qonun chiqaruvchi organ a'zosi;
- siyosiy partiyaning boshqaruv organi (kengashi) a'zosi;
- Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud sudyasi yoki boshqa darajadagi sud organining sudyasi (sud organi a'zosi);
- Markaziy bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
- elchi (konsul);
- inson huquqlari bo'yicha vakil yoki biznes-ombudsman;
- Qurolli kuchlarning katta lavozimdagi ofitseri;
- davlat ulushi bo'lgan Bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
- xalqaro tashkilot rahbari.

Yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Biznes hamkor – mehnat munosabatlaridan tashqari, Bank shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (kontragent, yetkazib beruvchi, tijorat banki yoki Bankning nomidan va topshirig'iga binoan yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish vakolatiga ega bo'lgan boshqa uchinchi shaxs biznes-hamkorga misol bo'lishi mumkin).

Xodimlar/Xodim – mehnat shartnomasi asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi, uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma rahbarlari va boshqa ishchilar.

Hayriya mablag'lari – jismoniy yoki yuridik shaxslarga qaytarib olish va manfaat (foйда) ko'rish shartisiz, beg'araz yoki imtiyozli shartlarda yo'naltirilgan mol-mulk hamda pul mablag'lari. Bundan tashqari, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqa qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyatni ixtiyoriy ravishda amalga oshirish.

Ijtimoiy investitsiyalar – jamoat manfaati maqsadiga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Tijorat homiyliги – Bankni ommalashtirish, reklama maydoni yoki ommaviy yoritishning boshqa shakllarini taqdim etish yoki bozor bilan tijorat ma'lumotlarini almashish, yoxud Bank brendini, mahsulotlarini, xizmatlarini targ'ib qilish maqsadida Bank obro'sini yaxshilash (masalan, ko'rgazma-yarmarkalar, konferensiyalar, sport tadbirlari va boshqalar) evaziga shov-shuvli tadbirlar, faoliyat turlari yoki tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.

Uchinchi tomonlar – korxonaning bir qismi bo'lmagan, lekin uning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

II. Umumiy qoidalar

7. Hayriya va Tijorat homiyliги qo'llaniladigan qonunchilik talablariga, hisobotlarga, soliq majburiyatlariga bo'ysunishi va daxldor xavflar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

8. Nizomga muvofiq, xavflar bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun hayriya va tijorat homiyliги turli xil dastlabki kelishuv mezonlari va jarayonga qo'yiladigan talablarga ega.

9. Muayyan faktlar yoki holatlar qonunchilikni yoki me'yorlar talablarni buzish xavfini keltirib chiqarishi mumkin ("yuqori xavf-xatarlar") bo'lgan holatlarda hayriya yoki tijorat homiyliğini amalga oshirishni boshlashdan oldin ushbu xavflar bartaraf etilishi kerak.

10. Hayriya va tijorat homiyliги Bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi Qarori bilan tasdiqlangan limitlar doirasida Bankning Kuzatuv kengashi tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

11. Bank tomonidan olinadigan hayriya yoki tijorat homiyliги yopiq mukofot shaklida bo'lmasligi va Bankning alohida xodimlari tomonidan hayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ular bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, donor yoki homiy shaxsiy manfaatga ega shaxslar foydasiga qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi kerak.

12. Bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek, hayriya va homiylik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ma'lum qilinishi uchun barcha choralar ko'riladi.

13. Hayriya va tijorat homiyliги Bankning biznes obro'sini (brendi va nufuzini) mustahkamlashning asosiy usullaridan biridir. Biroq Bankning homiyliги g'ayriqonuniy ustunlikka ega bo'lishga urinish deb qabul qilinmasligi yoki hisoblanmasligi kerak.

14. Hayriya va tijorat homiyligi faoliyati yozma shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu shartnomalarda homiyligini amalga oshiruvchi tashkilotchilarning poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyati nazarda tutilishi shart.

15. Homiyligini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan barcha mablag'lar Bank buxgalteriyasida aniq aks ettirilishi lozim.

16. Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishda yoki qabul qilishda Bankning ichki tartib va Nizomlariga, shuningdek, qo'llaniladigan qonunchilik va Bankning boshqa yuridik majburiyatlariga rioya qilinishi hamda tegishli Nizom va tartib-tamoyillariga mos kelishi bo'yicha tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

17. Hayriya va tijorat homiyligida to'lanadigan pul miqdorlari, oluvchining nomi, shuningdek aniq maqsadni ifodalaydigan tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lishi kerak.

18. Hayriya va tijorat homiyligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- qonuniylik tamoyili huquqning haqiqiy amal qilishini belgilovchi huquqiy rejimga rioya qilishdan iborat bo'lib, bunda barcha shaxslar qo'llaniladigan qonunchilikka qat'iy rioya etadilar;
- ixtiyoriylik tamoyili Bankning hayriya yoki tijorat homiyligi ko'rsatish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi;
- shaffoflik tamoyili Bank va hayriya oluvchining hayriya yoki tijorat homiyligida ochiq ishtirok etish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi.

19. Hayriya va tijorat homiyligi quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

- fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta'minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash;
- o'z jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish;
- xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish;
- onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko'maklashish;
- ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat sohasidagi faoliyatga, shuningdek shaxsning ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish;
- kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ko'maklashish, fuqarolarga ma'naviy-ruhiy yordam ko'rsatish;
- jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko'maklashish;
- aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;
- terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;
- madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish;
- qo'llanilayotgan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan boshqa maqsadlarni joriy qilish uchun.

20. Hayriya va tijorat homiyligi quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- moliyalashtirish tarmog'ini rivojlantirish orqali jamiyatda ishsizlik darajasini kamaytirish va ish bilan band bo'lgan faol aholi qatlamini kengaytirish;
- jamiyatda moliyaviy savodxonlikni oshirish va innovatsiyalarni tatbiq etishning yangi va samarali usullarini taklif qilish;
- qonuniy maqomga hamda vijdonli va halol tijorat operatsiyalarini olib boruvchi sifatida nufuzga ega bo'lgan tashkilotlar foydasiga amalga oshirilishi kerak.

21. Hayriya va tijorat homiyligi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- uchinchi shaxslar orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy oluvchilarga nisbatan amalga oshirish;
- hayriyani amalga oshirish zaruratini Bank tomonidan individual ravishda belgilash;
- biznes taklifga asoslanishi va muayyan maqsadga ega bo‘lishi;
- muhim anjuman yoki ommaviy madaniy yoki sport tadbirlari kabi shov-shuvli tadbir, faoliyat yoki tashkilotni qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshirilishi;
- qonuniy maqomga ega shaxslarga nisbatan tatbiq qilinishi hamda Bankga iqtisodiy samara berishi va uning mavqei oshishiga sharoit yaratishi;
- aniq va puxta tayyorlangan, shu jumladan, me‘yor va talablarga rioya etilishi tegishli tekshirilganligi va tijorat foydalari bor-yo‘qligiga oid hujjatlar mavjud bo‘lishi kerak.

22. Hayriya va Tijorat homiyligida quyidagi cheklovlar amal qiladi:

- Bank faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarga ta‘siri bo‘lsa;
- tender va tanlov jarayonlarida kotragentlar bilan bo‘lgan munosabatlarda;
- homiy oluvchi bilan nizolar bo‘yicha ko‘rilayotgan sud jarayonlari vaqtida homiylik va hayriya qilish mumkin emas.

23. Hayriya va tijorat homiyligi quyidagi holatlarda taqiqlanadi:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj va og‘ir moliyaviy ahvolda bo‘lgan shaxslardan tashqari jismoniy shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan hayriya;
- har qanday diniy tashkilotga nisbatan amalga oshiriladigan hayriya;
- siyosiy partiyalar, tashkilotlar yoki nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladigan hayriya;
- Davlat xizmatchisi yoki biznes hamkorga nomaqbul ta‘sir ko‘rsatishga olib keladigan hayriya yoki tijorat homiyligi;
- korrupsiya yoki axloqqa zid xatti-harakatlariga aralashib qolgan yoki shunday nom chiqargan tashkilotga nisbatan hayriya yoki Tijorat homiyligi;
- naqd pul to‘lovlari shaklidagi hayriya yoki Tijorat homiyligi;
- yordamning yakuniy oluvchisi Davlat xizmatchisi bo‘lgan davlat sektorida amalga oshirilayotgan dastur uchun hayriya yoki tijorat homiyligi.

24. Hayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablarga rioya etilishi lozim:

- donor yoki homiy bilan shartnoma tuzilishi, unda hayriya yoki homiylikni olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi miqdori, shuningdek, donor oldida hisobot berish usuli ko‘rsatilishi yoki olingan yordamdan foydalanish rejasi to‘g‘risida homiy xabardor bo‘lishi;
- Bankning Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida olingan hayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirishi kerak.

III. Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish jarayoni

25. Bank tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan hayriya va tijorat homiyligi bir nechta bosqichli xujjatlashtirish jarayonlaridan iborat.

26. Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so‘rab yo‘llangan murojaat ijroga qabul qilingandan so‘ng Bank Boshqaruvining navbatdagi yig‘ilishi kun tartibiga kiritiladi.

27. Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so‘rab yo‘llangan murojaat birlamchi Bank boshqaruvi tomonidan o‘rganib chiqiladi va quyidagi qaror qabul qilinishi mumkin:

- Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so‘rab yo‘llangan murojaatni Bank Kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishi kun tartibiga kiritish;
- Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so‘rab yo‘llangan murojaat yuzasidan Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish ayni damda maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida murojaatchiga javob berish.

28. Bank Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi kun tartibiga Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish yuzasida kiritilayotgan ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- berilayotgan hayriya yoki tijorat homiylik maqsadlarining batafsil tavsifi;
- mo'ljallanayotgan hayriya yoki tijorat homiylikning summasi;
- hayriya yoki tijorat homiylik so'rab qilingan yozma murojaatning nusxasi;
- mo'ljallanayotgan hayriya yoki tijorat homiylikning Bank imidjiga ta'siri;
- mo'ljallanayotgan hayriya yoki tijorat homiylik yuzasidan Komplayens-nazorat boshqarmasi xulosasi.

29. Komplayens-nazorat boshqarmasi uch ish kuni ichida Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so'rab yo'llangan murojaatni ko'rib chiqadi va so'ralgan hayriya va tijorat homiyligining Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

30. Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so'rab yo'llangan murojaat Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan o'rganib chiqiladi va quyidagi qaror qabul qilinishi mumkin:

- Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish to'g'risida qaror;
- Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni so'rab yo'llangan murojaat yuzasidan Hayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish ayni damda maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida murojaatchiga javob berish.

31. Bankda hayriya oluvchiga homiylikni amalga oshirish faqatgina Kuzatuv kengashi bayonnomasi asosida amalga oshiriladi. Bunda Bankning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, hayriya va tijorat homiyligi muddatlari va miqdori Bank Boshqaruvi Bank uchun eng muqobil usulda taqsimlaydi.

32. Yuridik bo'lim hayriya yoki tijorat homiyligini amalga oshirish yuzasidan imzolanayotgan shartnomalarni qonunchilikka muvofiq kelishini tekshiradi hamda e'tiroz va takliflar bo'lmagan taqdirda unga rozilik beradi.

IV. Xavf omillarini belgilash

33. Ayrim hollarda hayriya va tijorat homiyligi Davlat tashkilotiga va/yoki Davlat xizmatchisi yoki boshqa bir tomonga asossiz imtiyozlar berish kabi ehtimoliy suiiste'mollik bilan bog'liq bo'lib, buning oqibatida Bankning nufuziga putur yetishi, yuridik yoki moliyaviy ziyon yetkazilishi mumkin.

34. Mablag'larni asossiz sarflash xavfi mavjud bo'lganda, bunday hollarda hayriya yoki tijorat homiyligini amalga oshirish imkoniyatini yanada sinchkovlik bilan tekshirish hamda oluvchi kontragentlar o'rganilishi kerak. Bunday "yuqori xavf-xatarlar"ga misollarga shuningdek quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

Yuqori xavf-xataralar:

- davlat xizmatchisiga yoki Biznes hamkorga salbiy oqibat keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan to'lov amalga oshirish so'ralganda;
- so'rov naqd pul (banknotalarni) to'lash to'g'risida yuborilganda;
- so'rov davlat tashkilotidan va/yoki vazifalari Bank faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan davlat xizmatchisidan kelib tushgan;
- so'rov og'zaki ravishda amalga oshirilsa va hayriya oluvchi so'rovni yozma ravishda yuborishdan bosh tortsa;
- jismoniy shaxslarga (xaqiqatda ijtimoiy himoyaga muhtoj va og'ir moliyaviy ahvolda bo'lgan shaxslardan tashqari) xomiylik yordami o'tkazilganda;
- diniy tashkilotlarga xomiylik mablag'i o'tkazilganda;
- siyosiy partiyalar hamda ularning tashkilotlari va nomzodlarini qo'llab-quvvatlash uchun unga xomiylik mablag'i ajratish taklifi bildirilganda;

- korrupsiya yoki axloqqa zid xatti-harakatlari bilan ko‘zga tashlangan yoki shunday darajadagi tashkilotdan xomiylik uchun so‘rov kelganda;
- so‘rovda to‘lovlarni ikki yoki undan ortiq hisob varaqlariga yoki (ayniqsa, aniq bir oluvchi bilan bog‘liq bo‘lmagan) offshor hisob varaqlariga amalga oshirish so‘ralganda;
- Hayriya (yoki tijorat homiyligi) maqsadlari aniq belgilanmagan yoki uning ta‘rifi o‘ta mavhum keltirilgan (masalan, “bolalar hayotini yaxshilash”);
- Hayriya (yoki tijorat homiyligi) amalga oshirish uchun hujjatli dalillar mavjud emas;
- Hayriya mablag‘laridan (yoki tijorat homiyligidan) kelgusida foydalanish uchun shaffoflik mavjud emas yoki cheklangan;
- qaror qabul qilishda bevosita ta‘siri bor kontragentga to‘lov rejalashtirilganda.

O‘rtacha xavf-xatarlar:

- Tijorat homiyligining Bankning biznes va marketing maqsadlari bilan bilvosita aloqasi bo‘lsa;
- so‘rov shoshilinch xususiyatga ega bo‘lsa;
- ichki tartib qoidalarga va Nizomga ko‘zda tutilmagan, ammo rasmiy topshiriq orqali o‘tkazib berish buyurilgan tashkilotlarga to‘lov;
- xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan tashkilotga.

Past xavf-xatarlar:

- hukumat topshirig‘i asosida o‘tkaziladigan to‘lovlar;
- bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltiriladigan xomiylik;
- homiylik beruvchining bevosita ishtiroki ta‘minlangan tadbirlar, yig‘inlar va ommaviy shoular.

V. Hayriya va tijorat homiyligi reestrini yuritish va monitoring qilish.

35. Komplayens-nazorat boshqarmasi Bankda barcha turdagi hayriya va tijorat homiyliklariga nisbatan amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazadigan markazlashtirilgan hayriya va tijorat homiyligi reestrini yuritadi.

36. Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i yoki u tomonidan tayinlangan shaxs hayriya va tijorat homiyligi barcha murojaatlarini, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlar va ma‘lumotlarni yagona reestrda ro‘yxatdan o‘tkazish va saqlash uchun javobgardir.

37. Hayriya oluvchi shartnomada belgilangan homiylik miqdorini to‘liq o‘tkazilgan oxirgi sanasidan boshlab 15 kun ichida Bankning Komplayens-nazorat boshqarmasiga hayriya yoki tijorat homiyligi amalga oshirilganini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlarni yuborishi shart:

- Hayriya va tijorat homiyligi va u bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar;
- ommaviy axborot vositalarida Hayriya va tijorat homiyligi yoki u bilan bog‘liq pulli badallarni amalga oshirilganini tavsiflovchi chiqishlar (agarda mavjud bo‘lsa);
- Hayriya yoki tijorat homiylik tadbirlari yoki voqeasi to‘g‘risida suratli yoki videohisobotlar;
- sanksion rejimdagi tashkilotlar bilan aloqa qilmaslik, manfaatlar to‘qnashuvi qoidalariga rioya qilish, terrorism va diniy ekstremizm, qurollarni tarqatishni moliyalashtirmaslik, mablag‘larni davlat xizmatchilari va uning yaqinlariga yo‘naltirmaslik, samarali va maqsadli sarflash majburiyati bo‘yicha hayriya yoki tijoriy homiylikni oluvchidan kafolat xati.

38. Taqdim etilgan hujjatlar asosida homiylik (hayriya) mablag‘ining maqsadli sarflanganligi, xujjatlar to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi yuzasidan nazorat o‘tkazish maqsadida Komplayens-nazorat boshqarmasi Hayriya yoki tijorat homiylik belgilangan maqsadlarga yo‘naltirilganligini davriy tekshiruvini amalga oshiradi, xususan:

- Hayriya (yoki Tijorat homiyligi) to‘lovlarini – har 6 oyda bir marta,

– Hayriya (yoki Tijorat homiyligi) uchun berilgan tovar moddiy boyliklari – bir yilda bir marta (ular xisobdan chiqarilgunga qadar).

VI. Xabarlarni ko‘rib chiqish, tekshirish o‘tkazish va javobgarlik choralari

39. Har qanday shaxs ushbu Nizom bo‘yicha maslahat olmoqchi yoki Nizom talablari buzilishi holatlari bo‘yicha xabar qilmoqchi bo‘lsa, Bankning +998 71 231 27 70 ishonch telefoni, compliance@anorbank.uz elektron pochta hamda @anorbankanticorbot manzili orqali Komplayens-nazorat boshqarmasiga murojaat qilishi lozim.

40. Komplayens-nazorat boshqarmasi xabarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqib, Nizom talablari buzilgan yoki buzilmaganligi bo‘yicha xulosa beradi.

41. Nizom talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda, bu haqda xizmat tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha Bank rahbariyati nomiga bildirgi kiritadi.

42. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish mehnat qonunchiligi va ichki tartib qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

43. Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi bo‘yicha o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi yakuni yuzasidan amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin

VII. Yakuniy qoidalar

44. Mazkur Nizom Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan kundan kuchga kiradi.

45. Komplayens-nazorat boshqarmasi mazkur Nizom talablariga rioya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ul hisoblanadi. Komplayens-nazorat boshqarmasi mazkur Nizomning ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirib borilishini ta‘minlaydi.

49. Ushbu tartibga Bankning barcha xodimlari tomonidan to‘liq rioya qilinishining nazorati Bank rahbariyati va Komplayens-nazorat boshqarmasiga yuklatiladi.

50. Tartibga rioya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar Bank ichki tartib qoidalarga yoki qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Kiritildi:

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i

D. Xushnazarov

Kelishildi:

Boshqaruv raisi

Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

E. Kadirov

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

S. Xan

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

M. Avazov

Yuridik boshqarma boshlig'i

T. Zanaxov

Boshqaruvchi direktor

A. Bakiyev

Bosh buxgalter

U. Babayev

Ichki audit departamenti direktori

S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori

M. Pulatova

Risk menejmenti departamenti direktori

D. Ibragimova

Personalni boshqarish departamenti direktori v.b

A. Ilxomjonov